UDK: 372.881.111.1:004.9

TIL TA’LIMIDA RAQAMLI MEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TA’MINOTI

Usmonov Faridjon Saydullayevich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada til ta’limida raqamli media vositalaridan foydalanishning didaktik asoslari, ularni tanlash va o‘quv jarayoniga integratsiyalash mezonlari yoritilgan. Media vositalarining pedagogik imkoniyatlari R. Kozma, R. Klark, A. Paivio va R. Mayerning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, mediendidaktikaning ta’lim jarayonidagi o‘rni, raqamli resurslarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati hamda an’anaviy va raqamli ta’lim komponentlarini uyg‘unlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: til ta’limi, raqamli media, mediendidaktika, raqamli texnologiyalar, multimedia, multimodallik, interaktiv ta’lim, kommunikativ kompetensiya, didaktik ta’minot, mustaqil ta’lim, refleksiv baholash.

An’anaviy va raqamli ta’lim uyg‘unligiga asoslangan til ta’limining samaradorligi nafaqat o‘qitish modeli yoki metodik yondashuvning to‘g‘ri tanlanishiga, balki ushbu jarayonda qo‘llaniladigan raqamli media vositalarining didaktik maqsadlarga muvofiq tanlanishi va integratsiyalashuviga ham bevosita bog‘liq. Chunki bir xil media vositasi turli pedagogik vazifalarni bajarishi yoki, aksincha, bir xil metodik vazifani turli media vositalari yordamida amalga oshirish mumkin. Shu sababli media vositalarini tanlash jarayoni texnik imkoniyatlarga emas, balki ta’lim maqsadi, o‘quv mazmuni, rivojlantiriladigan til ko‘nikmalari hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlariga tayanishi lozim.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli media vositalarining pedagogik samaradorligi ularning soni yoki zamonaviyligi bilan emas, balki metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Zamonaviy til ta’limida media vositalari axborotni uzatish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil ta’limni tashkil etish, hamkorlikdagi o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash, autentik til muhitini yaratish hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, til ta’limida media vositalarini tanlash va qo‘llash jarayoni muayyan metodik mezonlarga asoslanishi zarur. Bunda media vositalarining funksional imkoniyatlari, didaktik vazifalari, o‘quvchilarning yosh va tayyorgarlik

darajasi, rivojlantirilayotgan til ko‘nikmasi hamda ta’limning an’anaviy va raqamli komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kompleks tarzda hisobga olinadi.

Media vositalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni borasida turli ilmiy qarashlar mavjud. R. Kozma fikricha, media vositalari va metodlar bir-birini to‘ldiradi hamda o‘quv jarayoniga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Uning yondashuviga ko‘ra, samarali pedagogik loyihalashda media vositalari va metodlarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, chunki media ayrim metodlarni amalga oshirish uchun zarur imkoniyatlarni yaratadi. Bu yondashuvga muvofiq, media vositalari ikkinchi darajali omil emas, balki axborotni turli modal va kodlash shakllarida taqdim etish imkoniyatiga ega didaktik vositadir.

Ushbu konsepsiya A. Paivioning ikki kanalli kodlash nazariyasi (Dual Coding Theory) va R. Mayerning multimedia ta’limining kognitiv nazariyasi bilan hamohangdir. Mazkur nazariyalarga ko‘ra, axborotni verbal va vizual shakllarda uyg‘unlashtirib taqdim etish o‘quvchining kognitiv qayta ishlash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi hamda bilimlarni mazmunan chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bois media vositalari tasodifiy ravishda emas, balki aniq didaktik maqsadga muvofiq tanlanishi zarur.

R. Kozmaning yondashuvida yangi media vositalari o‘zida turli ifodalash shakllarini mujassamlashtirgani sababli ularni oddiy texnik vosita sifatida almashtirish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Media vositasining o‘zgarishi ayrim hollarda butun metodik tizimni qayta loyihalashni talab qiladi. R. Klark esa media vositalarining o‘zi o‘quv natijalariga mustaqil ta’sir ko‘rsatmasligi, asosiy ahamiyat metodik yondashuv va o‘qitish usullariga tegishli ekanini ta’kidlaydi. Ushbu qarashlar o‘rtasidagi ilmiy munozara media vositalarining didaktik imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Media vositalarining pedagogik imkoniyatlarini faqat axborotni taqdim etish bilan cheklab bo‘lmaydi. Ularning multimediaviylik, multikodlilik, multimodallik, gipermedialik va interaktivlik kabi xususiyatlari o‘quv jarayonida yangi didaktik imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Mazkur xususiyatlar o‘quvchilarning axborotni turli shakllarda idrok etishi, qayta ishlashi, o‘zaro taqqoslashi va amaliy faoliyatda qo‘llashiga yordam beradi. Biroq media vositalarining mavjudligi o‘quv natijasini avtomatik ravishda oshirmaydi. Ularning samaradorligi mazmun, metod va o‘quv faoliyati bilan uyg‘unligiga bog‘liq.

Media vositalarining turli fanlar doirasida qo‘llanilishi mediapedagogika tarkibida mediendidaktika yo‘nalishining rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Mediendidaktika media vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning nazariy, metodik va amaliy asoslarini o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida talqin etiladi. G. Raynman-Rotmayerning ta’kidlashicha, mediendidaktikaning asosiy vazifasi turli ta’lim muhitlarida, jumladan, maktab, oliy ta’lim, mehnat faoliyati va bo‘sh vaqt sharoitlarida

media vositalaridan foydalanish hamda ularni loyihalash orqali ta’lim va o‘qitish jarayonini takomillashtirishdan iborat.

Mediendidaktika ta’lim jarayonida media texnologiyalarining imkoniyatlari va ularning mazmuniy ahamiyatini o‘rganadi. Agar u faqat media vositalari rivojini kuzatuvchi nazariya sifatida emas, balki ta’lim jarayonini loyihalovchi amaliy yo‘nalish sifatida qaralsa, unda informatika va pedagogika yondashuvlarining uzviy integratsiyasi zarur bo‘ladi. P. Shtadtfeld tadqiqotlarida ham mediapedagogikaning o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari va ularning ta’lim jarayonidagi funksional imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan.

Til ta’limini an’anaviy va raqamli ta’lim uyg‘unligida tashkil etish kommunikativ, kompetensiyaviy, konstruktivistik, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasiga tayanishi lozim. Mazkur yondashuvlar o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil o‘zlashtiruvchi, muloqot jarayonida qo‘llovchi va o‘z faoliyatini refleksiv baholovchi faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois sinf hamda raqamli ta’lim muhitining vazifalarini didaktik jihatdan differensiallashtirish til ta’limi samaradorligining muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Til ta’limini an’anaviy va raqamli ta’lim uyg‘unligida tashkil etish texnologiyasi maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-jarayonli, diagnostik-baholash va natijaviy komponentlarning funksional yaxlitligiga asoslanadi. Ushbu komponentlarning uzviy aloqadorligi o‘qituvchi rahbarligi bilan o‘quvchi avtonomiyasi o‘rtasidagi maqbul nisbatni hamda sinf va raqamli ta’lim bosqichlarining mantiqiy almashinuvini ta’minlaydi. Demak, texnologik modelning samaradorligi uning barcha tarkibiy qismlari yagona pedagogik maqsadga bo‘ysundirilganligi bilan belgilanadi.

Til ko‘nikmalarini baholash faqat yakuniy natijani emas, balki o‘quvchining kommunikativ faolligi, mustaqilligi, xatolarni tuzatish qobiliyati va refleksiv munosabatini ham qamrab olishi zarur. Yuqori, o‘rta va quyi darajalar uchun belgilangan mezon hamda ko‘rsatkichlar miqdoriy va sifat o‘zgarishlarini birgalikda aniqlashga xizmat qiladi. Kompleks diagnostika esa o‘quvchiga zarur individual metodik yordam yo‘nalishini belgilash imkonini beradi.

Raqamli media vositalari, interaktiv topshiriqlar, sinf mashg‘ulotlari va mustaqil ta’limni uyg‘unlashtirish texnologiyasi diagnostika, raqamli tayyorgarlik, kommunikativ faoliyat, mustaqil mustahkamlash, teskari aloqa va refleksiv baholash bosqichlaridan iborat. Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi raqamli vositalarning pedagogik funksiyasini aniq belgilash va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, til ta’limida raqamli media vositalaridan samarali foydalanish ularning texnik imkoniyatlaridan ko‘ra didaktik maqsadlarga muvofiq

tanlanishi va metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiyalashuviga bog‘liq. Mediendidaktik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil ta’lim olish qobiliyati va raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli raqamli media vositalarini tanlashda mazmuniy muvofiqlik, foydalanish qulayligi, interaktivlik, yosh xususiyatlari va ta’lim natijalariga ta’siri asosiy didaktik mezonlar sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. – San Francisco: W. H. Freeman and Company, 1980. – 300 p.
2. Aßbeck J. Lernen, wie man fremdsprachig schreiben lernt. Der mühsame Weg zur Selbständigkeit // Praxis. – 1993. – Nr. 3. – S. 233.
3. Cambourne B. How Important Is Theory to the Reading Teacher? // Australian Journal of Reading. – 1979. – Vol. 2. – P. 78–90.
4. Carrell P. L., Grabe W. Reading // An Introduction to Applied Linguistics. – London: Arnold, 2002. – P. 233–250.
5. Clark R. E. Media Will Never Influence Learning // Educational Technology Research and Development. – 1994. – Vol. 42, No. 2. – P. 21–29.
6. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 260 p.
7. Kozma R. B. Will Media Influence Learning? Reframing the Debate // Educational Technology Research and Development. – 1994. – Vol. 42, No. 2. – P. 7–19.
8. Mayer R. E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – New York: Cambridge University Press, 2009.
9. Paivio A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. – Oxford: Oxford University Press, 1986.